

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OCHILOV JAMSHID NASIRDINOVICH

**SIGIRLARDA YO‘LDOSHNING USHLANIB QOLISHI ETIOLOGIYASI,
PATOGENEZI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH**

**16.00.02 – Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi. Veterinar akusherligi va
hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Camarqand – 2024

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автареферата диссертации доктора философии (PhD)
по ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Ochilov Jamshid Nasirdinovich

Sigirlarda yo‘ldoshning ushlanib qolishi etiologiyasi, patogenezi,
davolash va oldini olish.....3

Очиллов Жамшид Насирдинович

Этиология, патогенез, лечение задержки последа у
коров и профилактика.....23

Ochilov Jamshid Nasirdinovich

Etiology, pathogenesis, treatment of retained placenta in
cows and prevention.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OCHILOV JAMSHID NASIRDINOVICH

**SIGIRLARDA YO‘LDOSHNING USHLANIB QOLISHI ETIOLOGIYASI,
PATOGENEZI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH**

**16.00.02 – Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi. Veterinar akusherligi va
hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4./PhD/V36 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.viti.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kuldashev Otamurod Urazovich
veterinariya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Ilyasov Aziz Saidmurodovich
biologiya fanlari doktori, professor

Djumanov Sobirjon Murodovich
veterinariya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:


**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish
qo'mitasi**


Dissertatsiya himoyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.06/29.10.2021.V.139.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «24» 12 soat «10» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141500. Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1-qishlog'i 67 uy. tel.: (+99866) 666-56-60; ye-mail: nivi@vetgov.uz)


Dissertatsiya bilan Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4602 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 141500. Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1-qishlog'i 67 uy. tel.: (+99866) 666-56-60; faks: (+99866) 666-56-66., ye-mail: nivi@vetgov.uz).


Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «19» 12 kuni tarqatildi.

(2024 yil «19» 12 dagi № 17 raqamli reestr bayonnomasi)




B.A. Elmurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, vet.f.d., professor


F.S. Pulotov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, vet.f.f.d. (PhD),
katta ilmiy xodim


G.X. Mamadullaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d.,
katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda, turli mintaqalarda mahsuldor sigirlar orasida tugʻandan keyin yoʻldosh ushlanib qolinishi kabi patologiyalar koʻp kuzatilmoqda. Respublikamizda chorvachilikni rivojlanishiga toʻsiq boʻlayotgan muammolardan biri-qishloq xoʻjalik hayvonlarida uchraydigan tugʻandan keyin yoʻldosh ushlanib qolishi oqibatida sigirlarda qisirliliklar va ginekologik kasalliklarning kelib chiqishi hamda buning oqibatida chorvachilik xoʻjaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazilmoqda. «Respublikamiz chorvachilik fermer xoʻjaliklarida har yili 20-30% sigirlar qisir boʻlib qolishining asosiy sabablardan biri bu – yoʻldosh ushlanib qolishidir»¹. «Sigirlarda yoʻldoshning toʻliq ushlanib qolishi 18,3%, notoʻliq ushlanib qolishi 61,2%, qisman ushlanib qolishi esa 15,5 foizni tashkil etadi»². Sigirlarda bachadon kasalligining (50-80% holatda) keltirib chiqaruvchi asosiy sababchilaridan biri bu yoʻldosh ushlanib qolishidir. Shunga asoslangan holda, qoramolchilik sohasida qisirlilikni va tugʻandan keyin ginekologik kasalliklarni keltirib chiqaruvchi yoʻldosh ushlanib qolishi sababini oʻrganish, oldini olish, yuqori samara beruvchi davolash va profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb masala boʻlib hisoblanadi.

Dunyoning koʻpchilik davlatlarida turli stress omillar va antisanitariya sharoitlari, oziqa ratsion tarkibining toʻlaqonli emasligi, yayratish maydonchalarini yoʻqligi natijasida mahsuldor sigirlar orasida yoʻldosh ushlanib qolinishi oqibatida tugʻandan keyin ginekologik kasalliklarning koʻp uchrashi, organizmda moddalar almashinuvining buzilishlari, shuning oqibatida tabiiy rezistentlik pasayishi kuzatilmoqda. Shu sababli qoramollarda sut va goʻsht mahsuldorligining kamayishi, sifatining pasayishi, koʻpayish xususiyatlarining yomonlashuvi, fiziologik jihatdan rivojlanmagan buzoq tugʻilishi, oʻsish – rivojlanishdan orqada qolishi va kelgusida podani toʻldirish uchun yaroqsiz boʻlishi, xoʻjalikda yuqori mahsuldor sigirlardan foydalanish muddatlarining kamayishi, mahsulot yetishtirish uchun oziqa sarfining ortishi kabi muammolar mavjud.

Respublikamizda chorva hayvonlari, ayniqsa mahsuldor sigirlarda, yoʻldosh ushlanib qolishi va tugʻandan keyin ginekologik kasalliklarni kamaytirish, davolash va oldini olishga qaratilgan keng koʻlamli chora- tadbirlarni amalga oshirish veterinariya sohasida muhim masalalardan biri boʻlib qolmoqda. Chorvachilikning asosiy tarmogʻi boʻlgan qoramolchilikni rivojlantirish va samaradorligini oshirishda fermer va xususiy xoʻjaliklardagi sigirlar bosh sonini koʻpaytirish, mahsuldorligini oshirish, ulardan sogʻlom buzoq olish maqsadida toʻgʻri parvarishlash va turli infeksiya, invazion va yuqumsiz kasalliklardan asrashga alohida eʼtibor qaratish zarur. Mahsuldor sigirlar orasida yoʻldosh ushlanib qolishi natijasida tugʻandan keyin akusher-ginekologik kasalliklar keng

¹Муртазин Б.Ф. Бактериальные аспекты акушерско-гинекологической патологии коров / Б.Ф.Муртазин Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора ветеринарных наук 2009. – С. 40.

² Заянчковский И.Ф. Задержание последа у коров. – М.: Колос, 1964, - 384 с.

tarqalgan bo‘lib, ularni samarali davolash va oldini olishda biologik va kimyoviy mahalliy preparatlarni keng qo‘llash orqali ushbu patologiyalarni davolash va oldini olishning kam harajat, resurs tejamkor usullarini ishlab chiqish chorvachilikda dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»³gi farmoni, 2017 yil 16 martdagi PQ-2841-son «Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-son «Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022 yil 8 fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va oziqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son «O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sigirlarda ginekologik kasalliklar hamda qisir bo‘lib qolishni keltirib chiqaruvchi alimentar, simptomatik, iqlim va eksplutatsion omillar natijasida xo‘jaliklarda sigirlarda uchraydigan yo‘ldosh ushlanib qolishi, bachadon gipotoniya, endometrit kasalliklarining sabablarini aniqlash, davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha Xorij olimlari N.A.Bourne, M.J.Burton, H.Eiler, M.Dirilich, A.Bolender, G.Bertoni, W.R.Butler, E.Grunert, J.W.Gunnink, C.R.Curtis, A.R.Peters, va boshqalar tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. MDH (mustaqil davlatlar hamdo‘stligi) olimlaridan A.N.Stukova, V.S.Sapojkov, V.P.Inozemsev, Yu.A.Doljenkov, V.I.Belyayev, P.N.Bezborodov, A.K.Lobodin, M.V.Pivrina, V.G.Chernix, A.G.Nejdanov, I.F.Zayanchkovskiy, A.P.Aleksiyev, G.F.Midvedev, A.P.Goncharov, S.A.Vlasov, V.I.Mixaylov, I.A.Popov, A.F.Kolchina, M.V.Silayeva, A.M.Semivolosov, N.N.Semyonova, S.P.Xomin va boshqa olimlar tomonidan urg‘ochi hayvonlarning qisirligi va tug‘gandan keyin ginekologik kasalliklarining sabablari va kechish xususiyatlari o‘rganilgan, davolash va oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan va ilmiy jihatdan asoslangan. Respublikamiz olimlari B.F.Murtazin, O.U.Kuldashev, K.N.Norboyev, B.M.Eshburiyev, S.M.Djumanov, B.Nurmammedov, Sh.Q.Baliyev, M.A.Sulaymonov va boshqalar tomonidan bu sohada keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Bugungi kunda Respublikamizning sut-tovar yo‘nalishidagi fermer

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

xo‘jaliklari sharoitida sigirlarda tug‘gandan keyin yo‘ldosh ushlanib qolishi va ginekologik kasalliklarning etiologiyasi, diagnostikasi, davolash va oldini olish chora-tadbirlari to‘liq o‘rganilmagan, shuningdek, adabiyot ma‘lumotlariga ko‘ra, sigirlarda tug‘gandan keyin yo‘ldosh ushlanib qolishining patologiyasi, davolash va oldini olishda samaradorligi yuqori uslublar va mahalliy xom-ashyolardan ishlab chiqarilgan yangi preparatlar, usul va vositalar yaratish dolzarb masala hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti «Veterinariya va urchitish patologiyasi» laboratoriyasining №BV-A-QX-2018-17 «Sigirlarning akusher-ginekologik kasalliklarini davolash, servis davrini qisqartirish hamda sun‘iy qochirishni yangi usul va vositalarini yaratish» (2018-2020 yy.), «O‘zbekiston sharoitida hayvonlar uchun zoogigenik parametrlarini ishlab chiqish va zotli mollar uchun veterinariya-sanitariya, urchitish patologiyasi bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish» mavzusidagi 2021-2023 yillarga rejalashtirilgan ilmiy-amaliy va innovatsion loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sigirlar tug‘gandan keyin yo‘ldosh ushlanib qolishi va fasllar kesimida uchrash darajasi, uning sabablari, tarqalishi, patogenezi, kechish turlarini aniqlash, iqtisodiy zarari va etiologiyasini tahlil qilish, davolash va oldini olishda yuqori samara beruvchi maxsus vositalar yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sigirlarda tug‘gandan keyin yo‘ldosh ushlanib qolishini keltirib chiqaruvchi alimantar va mikroiklim sabablarini aniqlash;

sigirlarda tug‘gandan keyin yo‘ldosh ushlanib qolishida jinsiy a‘zolarida kuzatiladigan patomorfologik va qondagi morfologik o‘zgarishlarni aniqlash;

sigirlarda tug‘gandan keyin yo‘ldosh ushlanib qolinishida “Rootikan” va «Ixglyukovit-vet» preparatlarini davolash samaradorligini aniqlash;

«Ixglyukovit-vet», «Fertadin» va «Gonadin» preparatlarining sigirlarda tug‘gandan keyin yo‘ldosh ushlanib qolishini oldini olish, servis davri hamda otalanishdagi samaradorligini aniqlash;

sigirlarda tug‘gandan keyin yo‘ldosh ushlanib qolishini davolashda umumiy hamda maxsus ta’sir qiluvchi preparatlarni qo‘llash orqali samarali uslub va vositalarni ishlab chiqish;

sigirlarda qisirlik va tug‘gandan keyin yo‘ldosh ushlanib qolinishining oldini olish uslublarini ishlab chiqish, servis davrini qisqartirishga asoslangan profilaktik tadbirlar majmuasini yaratish;

sigirlarda tug‘gandan keyin yo‘ldosh ushlanib qolinishining tarqalishi va xo‘jaliklarga keltiriladigan iqtisodiy zararni aniqlash.

Tadqiqotning ob’ekti qoramolchilik fermer xo‘jaliklaridagi mahalliy va naslli sigirlar, ularning jinsiy a‘zolaridan olingan patologik namunalar (to‘qima, qin suyuqligi, yo‘ldosh), qonning morfologik, biokimyoviy ko‘rsatkichlari, ginekologik kasal sigirlarga qo‘llaniladigan umumiy va maxsus ta’sir etuvchi preparatlar.

Tadqiqotning predmeti qisir va tugʻandan keyin yoʻldoshi ushlanib qolgan sigirlar, fermalarning poda sindromatikasi koʻrsatkichlari, akusher-ginekologik dispanserlash natijalari, qonning morfobiokimyoviy va leykoformula koʻrsatkichlari, kasallangan sigirlar jinsiy aʼzolaridan ajratilgan mikroorganizmlar qoʻzgʻatuvchilari, davolash va oldini olishda foydalanilgan biologik va kimyoterapevtik preparatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda klinik, morfologik, biokimyoviy, refraktometrik, mikroskopik, patologoanotomik, akusher-ginekologik, toʻgʻri ichak orqali va UTT (ultratovush) tekshirish, kasal hayvonlarni davolash uchun preparatlar (rootikan va ixglyukovit-vet) aralashmasi tayyorlash va organizmga yuborib sinab koʻrish, variatsion va korrelyatsion tahlil usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoramolchilik fermer xoʻjaliklari sharoitida mahsuldor sigirlarda tugʻandan keyin yoʻldosh ushlanib qolishi yil fasllari boʻyicha tarqalish dinamikasi, uning turlari (toʻliq, notoʻliq va qisman), kasallikning xoʻjaliklarga keltiradigan (kuyga kelmasligi, servis davrining uzoq boʻlishi, sut mahsuldorlikning 15-20% kamayishi) iqtisodiy zarari aniqlangan;

sigirlarda qisiriklar va tugʻandan keyin yoʻldosh ushlanib qolishining sabablari alimentar (Fe, Mg, P, Retinol, Tokoferol), simptomatik (bachdon subinvolyutsiyasi, endomet) va mikroiqlimga (harorat, havo namligi, ammiak) bogʻliq omillar ekanligi tadqiqotlarda isbotlangan;

tugʻandan keyin yoʻldosh ushlanib qolishida sigirlar jinsiy aʼzolarida kuzatiladigan patomorfologik va qondagi morfologik oʻzgarishlarni aniqlash uchun zamonaviy tekshirish usullarini qoʻllashga asoslangan diagnostik mezonlar ishlab chiqilgan;

sigirlarda tugʻandan keyingi yoʻldosh ushlanib qolishining oldini olish va davolashda umumiy hamda maxsus taʼsir qiluvchi preparatlarni (rootikan, ixglyukovit-vet, Gonadin, Fertadin) qoʻllash orqali davolash usullari takomillashtirilgan;

sigirlarda tugʻandan keyin yoʻldosh ushlanib qolishining oldini olish boʻyicha preparatlarni qoʻllab, servis davrini (25-30 kun) qisqartirishga asoslangan profilaktik tadbirlar (Ixglyukovet-vet, gonadin va fertodin) majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotlar olib borilgan xoʻjaliklar fermalarida asosan tugʻandan keyin yoʻldosh ushlanib qolinishi natijasida (12-30%) mahsuldor sigirlarning qisir boʻlib qolishini oldini olish usuli ishlab chiqilgan;

sigirlarda tugʻandan keyingi yoʻldoshni toʻliq ushlanib qolishi 10,8%, notoʻliq ushlanib qolishi 59,7%, qisman ushlanib qolishi 29,3 foizni tashkil etishi aniqlangan;

chorvachilik fermer xoʻjaliklarida sigirlarda tugʻandan keyin yoʻldoshni ushlanib qolishini davolash va oldini olishda «Rootikan», «Ixglyukovit-vet» «Gonadin», va «Fertadin» preparatlari tadbiiq etilgan;

tugʻan sigirlar servis davrining 50-60 kundan keyin urugʻlantirish sxemasini

joriy etish natijasida sutchilik fermalarida buzoq olish soni bir yilda 15-20 boshga ko'paygan. Mazkur sxema bo'yicha podadagi sigirlarning 30-40 foizini bir vaqtda urug'lantirish natijasida har 100 bosh sigirdan 90-95 bosh buzoq olishga erishilgan;

sigirlarda tug'gandan keyin yo'ldoshni ushlanib qolishining oldini olishda «Ixglyukovit-vet» preparatni qo'llash hamda parvarishlash va oziqlantirishni me'yorlashtirishdan iborat profilaktik majmua ishlab chiqilgan va joriy etilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi tekshirishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, akusher-ginekologik, yo'ldoshning ushlanib qolishini uchrashi yoki mavsumiyliги, tarqalishi, davolash-profilaktika chora-tadbirlarini o'tkazishda zamonaviy usullardan foydalanilganligi, birlamchi ma'lumotlarga statistik ishlov berish va ilmiy tahlil qilish, shuningdek, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqotlar natijalarining dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan yuqori baholanganligi va ilmiy ishlar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chorvachilikni rivojlantirishga katta iqtisodiy zarar keltirayotgan sigirlarda tug'gandan keyin yo'ldoshni ushlanib qolishini keltirib chiqaruvchi omillar (simptomatik, alimentar, ekspulatsion va iqlim) va jinsiy a'zolarida kechadigan patologik jarayonlar mexanizmi tahlil qilinib, kasallikka qarshi kurashish uslublarining xo'jaliklarda ishlab chiqilganligi, yo'ldosh ushlanib qolinishining etiologiyasi, patogenezini, patomorfologiyasi, diagnostikasi, oldini olish va davolashda organizmda moddalar almashinuvini me'yorga keltirish, bachadon muskullarining involyusiyasi, bachadonni zaharli suyuqliklardan tozalash, organizmni kurashuvchanlik qobiliyatini oshirish, mikroorganizmlarning ko'payishiga yo'l qo'ymaslik hamda bachadon faoliyatini to'liq tiklanishiga qaratilgan davolash va oldini olish uchun zarur bo'lgan tizimlarning nazariy asoslarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hozirgi vaqtda sigirlar orasida qisirlilik va tug'gandan keyingi yo'ldoshni ushlanib qolishini tarqalish tendensiyasining o'rganilganligi, tug'gandan keyingi kasalliklarni davolash va oldini olishda yangi mahalliy preparatlarning veterinariya amaliyotiga joriy etilishi natijasida yo'ldoshni ushlanib qolishi tufayli chorvachilikka yetkazilayotgan katta iqtisodiy zararning oldi olinganligi, shuningdek keltirilgan usul va vositalarni veterinariya amaliyotiga va oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga joriy etilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sigirlar qisirligi, tug'gandan keyingi yo'ldoshni ushlanib qolishini davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

«Sigirlar tug'gandan keyingi ginekologik kasalliklarini davolash va oldini olish bo'yicha tavsiyalar» (Samarqand, 2017), «Sigirlar endometrit kasalligining oldini olish va davolash bo'yicha tavsiyanomalar» (Samarqand, 2020) va «Sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishini davolash va oldini olish bo'yicha

tavsiyanoma»lar (Samarqand 2024) tadqiqot natijalariga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, sigirlar qisirligini va tug'gandan keyingi yo'ldosh ushlanib qolishini kamaytirish uchun «Sigirlar tug'gandan keyingi ginekologik kasalliklarni davolash va oldini olish bo'yicha», «Sigirlar endometrit kasalligini oldini olish va davolash bo'yicha» va «Sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishini davolash va oldini olish bo'yicha» tavsiyalar tasdiqlanib, veterinariya amaliyotiga joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024 yil sentyabrdagi №02/23-501-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarni qo'llash natijasida xo'jaliklarda sigirlarni tug'gandan keyingi kasalliklar bilan kasallanishi 25-30 foizga kamaygan, servis davri 25 kunga qisqargan va birinchi kuyga kelib otalanishi esa 75-80 foizni tashkil etgan;

«Ixglyukovit-vet», «Gonadin» va «Fertadin» preparatlarini sigirlarning qisirligi va tug'gandan keyin yo'ldoshni ushlanib qolishini davolashda muskul orasiga «Ixglyukovit-vet» preparati 20-25 ml miqdorda ikki marta 3 kun oralig'i bilan qo'llash, Gonadin va Fertadin preparatlari 2 ml sigirlar tug'gan kuni qo'llash usuli ishlab chiqilib Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani «Chashma» va Kitob tumanidagi «Gulgunpusht chorvasi», Samarqand viloyati Pastdarg'om tumani «Imom ota», Samarqand tumani «Guljaxon», Narpay tumani «Narpay Zarif chorvasi» kabi fermer xo'jaliklariga joriy qilingan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining №02/23-501-son ma'lumotnomasi). Natijada sigirlarda tug'gandan keyin yo'ldosh ushlanib qolishini oldini olishda yuqori natija berishi, bachadon involyusiyasi yaxshilanib, kuyga kelishi va otalanishini tezlashtirishga erishilganligi tufayli sarflangan 1 so'm harajat qoplami 10,8 so'mni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur taqiqot natijalari 2019-2023 yillar davomida Veterinariya ilmiy tadqiqot institutining uslubiy va ilmiy kengashlarida muxokama qilingan. Ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida jami 15 ta, jumladan 10 ta respublika va 5 ta xorijiy ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiyasi Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta, ularning 10 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 3 tavsiyanoma chop etilgan, 1 ixtiroga Patent (№IAP 06294) olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, tadqiqotning vazifalari,

tadqiqotning ob'yikti, tadqiqotning predmiti, tadqiqotning uslublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobativiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» deb nomlangan birinchi bobida «**Sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishining tarqalishi va iqtisodiy zarari**» deb nomlangan birinchi qismida sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishining tarqalishi, kelib chiqish sabablari shuningdek qoramolchilik xo'jaliklariga keltiradigan iqtisodiy zarari xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bayon qilingan.


Adabiyot manbalari tahliliga ko'ra, sigirlarda yo'ldoshning ushlanib qolishi kasalligining tarqalishi asosan qish va bahor oylarining birinchi yarmida ko'p uchrashi, buning sababi esa aynan shu vaqtda sigirlar tug'ishi ko'p bo'lishi yoritilgan. «**Sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishining etiologiyasi, patogenezini va klinik belgilari**» deb nomlangan ikkinchi qismida sigirlarda tug'gandan keyin yo'ldosh ushlanib qolishini kelib chiqishi oziqa ratsionini to'laqonli bo'lmasligi hamda faol yayratish (matsion) yo'qligi, yo'ldoshi ushlanib qolgan sigirni tashqi tomondan jinsiy lablarning shishi, qin devoriga qon quyulishlar, to'g'ri ichak orqali tekshirilganda bachadon muskullarining qattiqligi, buzog'i katta bo'lganda bachadonning miyyor darajasidan kattalashib ketishi, katilidanlar qisqarmasligi natijasida korinkulalar ajralmasdan qolishi batafsil yoritilgan. «**Sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishini davolash**» deb nomlangan uchinchi qismida sigirlarda tug'gandan keyin yo'ldosh ushlanib qolishini davolash, turli olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda akusher-ginekologik tekshirishlar asosida tashhis qo'yish uslublari yoritilgan. «**Sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishining oldini olish**» deb nomlangan to'rtinchi qismida sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishini oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha turli olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda akusher-ginekologik tekshirishlar uslublari yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**Xususiy tadqiqotlar**» deb nomlangan ikkinchi bobida «**Tadqiqotlar joyi, ob'ekti va uslublari**» keltirilgan bo'lib, bunda tadqiqot joyi, ob'ekti va usullari haqida bayon etilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari 2019-2023 yillar davomida Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining «Vetsanitariya va urchitish patologiyasi» «Mikrobiologiya», «Brusellyoz kasalligini o'rganish» laboratoriyalarida hamda Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining chorvachilik xo'jaliklarida bajarildi.

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani «Chashma», Kitob tumani «Gulgunpusht chorvasi», Samarqand viloyati Pstdarg'om tumani «Imom ota», Samarqand tumani «Guljaxon», Narpay tumani «Narpay Zarif chorvasi» chorvachilik fermer xo'jaliklarida o'rganilgan. Jami 1401 bosh qoramollardan 765 bosh sigirlarda akusher-ginekologik dispanser tekshirishlar o'tkazilib, sigirlarning qisirligini asosiy sabablaridan biri, bu tug'gandan keyingi yo'ldosh ushlanib qolishining tarqalishi, sabablari, rivojlanish xususiyatlari, klinik belgilari,

qondagi morfobiokimyoviy o'zgarishlar, bachadonda hosil bo'lgan yallig'lanishning turini aniqlanib, kasal hayvonlar umumiy podadan ajratilib, tadqiqotlar o'tkazilgan. Xo'jaliklarning chorvachilik bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlari, hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlari, sut mahsuldorligi, har 100 bosh sigirdan buzoq olinishi, sigirlarning tug'gandan keyin kuyga kelishi, otalanishi va servis davrini tahlil qilish asosida poda sindromatikasi o'rganilgan.

Dissertatsiyaning «**Sigirlarni dispanserizatsiya natijalari**» nomlangan uchinchi bobining «**Sigirlarni saqlash va oziqlantirishning tahlili**» deb nomlangan birinchi qismida besh yil davomida (2019-2023 yillar) chovachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarida ilmiy tadqiqot ishlari oziqlantirish va saqlash sharoitlari o'rganilgan. Noqulay sharoitlarda saqlanadigan sigirlarda tug'gandan keyingi servis davri 140-200 kun davom etadigan va tez-tez kuyga kelib otalantirilishiga qaramasdan takror-takror kuyga keladigan sigirlar klinik va mikrobiologik tekshirilganda, ko'pgina holatlarda yo'ldoshi operativ (qo'lda bilan) olib tashlangan sigirlarda surunkali (yashirin) endometritlar bilan kasallanganligi aniqlangan. Sigirlarni saqlash sharoitlari ham o'rganilganda ko'pgina fermalarda veterinariya-sanitariya holati talabga javob bermasligi aniqlandi. Molxonalar zoogigienik talablar asosida qurilmagan, yayratish maydonchalari yo'q, borlari ham juda kichik bo'lib, veterinariya-sanitariya talablariga mos emasligi, sigirlar yil davomida bir joyda, ayvonlar ostida yayratishga chiqarilmasdan saqlanganligi sababli yo'ldosh ushlanib qolishi kuzatilgan. «**Xo'jaliklarda sigirlarni akusher-ginekologik dispanserizatsiya natijalari**» deb nomlangan ikkinchi qismida jami 765 bosh sigirlar akusher-ginekologik dispanserizatsiyadan o'tkazilgan (1-rasm). Xo'jaliklardagi sigirlarning tug'ishdan keyingi davrida akusher-ginekologik dispanserizatsiya davomida oxirgi marta tug'gan va tug'gandan keyingi davrning qanday kechgani hisobga olingan, jinsiy organlarni qin va to'g'ri ichak orqali tekshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tekshirishlar natijasida qin, bachadon bo'yinchasi, bachadon, tuxum yo'llari va tuxumdonlarning holati aniqlangan. Tug'ruq jarayonining qanday kechganligi, patologik tug'ishlar, bachadonning chiqishi, yo'ldoshning ushlanib qolishi, qinning chiqishi kabi kasalliklarining kuzatilish darajasi tahlil qilingan (1-rasm).




1-rasm. Xo'jaliklarda sigirlarni akusher-ginekologik dispanserizatsiya natijalari

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra sigirlarda yo'ldoshning ushlanib qolishi «Chashma» fermer xo'jaligida 17 bosh, «Guljaxon» fermer xo'jaligida 39 bosh,

«Gulgunpusht chovasi» fermer xo‘jaligida 13 bosh, «Imom ota» fermer xo‘jaligida 11 bosh va «Narpay Zarif chorvasi» fermer xo‘jaligida esa 12 bosh sigirlarda yo‘ldosh ushlanib qolishi kuzatilgan.

«**Sigirlarda yo‘ldosh ushlanib qolishining turlari bo‘yicha tarqalishi va fasllar kesimida kasallanish dinamikasi**» deb nomlangan uchinchi qismiida sigirlarda yo‘ldosh ushlanib qolishining turlari bo‘yicha tarqalishini o‘rganish bo‘yicha tajribalar 5 ta xo‘jalikda 92 bosh yo‘ldoshi ushlanib qolgan sigirlarda olib borildi (2-rasm).




2-rasm. Sigirlarda yo‘ldosh ushlanib qolishning turlar bo‘yicha tarqalishi

Yo‘ldoshi ushlanib qolgan sigirlar umumiy podadan ajratilib, anamnez ma’lumotlari, zooveterinariya hujjatlari va olingan patologik na’munalar Vetsanitariya va urchitish patologiyasi laboratoriyasida tekshirildi. Tajribalar davomida yo‘ldoshi ushlanib qolgan sigirlarning tashqi jinsiy lablari, qinning ichki shilliq qavatlari, bachadonning holati to‘g‘ri ichak orqali rektal tekshirish va UTT jihozi yordamida (bachadonning harakati, konsistensiyasi, qattiq yoki yumshoqligi, ichida suyuqlik bor-yo‘qligi va boshqalar) hamda qindan oqqan suyuqlikning rangi, hidi, hajmi va konsistensiyasi hamda sigirning tashqi tomondan ko‘rinishi (siyish pozani tez-tez takrorlab turadi, dumini qimirlatib ko‘tarib belini bukib, kuchanish alomatini qilib turadi) aniqlandi.

Respublikamizning barcha hududlari bo‘yicha sigirlarda yo‘ldosh ushlanib qolishining turlari bo‘yicha tarqalishi va ularning mavsumiyligi haqida ma’lumotlar keltirilmagan. Shularni inobatga olib, sigirlarda yo‘ldosh ushlanib qolishining qaysi turi ko‘p uchrashini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar yuqorida nomlari qayd qilingan 5 ta chorvachilik fermer xo‘jaliklarida o‘rganib chiqildi. Xo‘jaliklardagi yo‘ldoshi ushlanib qolgan sigirlarni klinik, rektal hamda UTT jihozi yordamida aniqlangan.

Tadqiqotlari oʻrganilgan xoʻjaliklarda sigirlarda yoʻldosh ushlanib qolishini har fasllarda oʻrganib, borilganda 92 bosh sigirlar yil davomida tugʻgandan keyin yoʻldoshi ushlanib qolganligi aniqlangan.

Tadqiqotlar olib borilgan xoʻjaliklardagi sigirlarda yoʻldosh ushlanib qolishi bahorda 29,3%, qishda 36,9%, yozda 17,4%, kuzda esa 16,3 foizni tashkil etgan (3-rasm).



3-rasm. Chorvachilik fermer xoʻjaliklarida sigirlarda yoʻldosh ushlanib qolishini fasllar boʻyicha uchrashi

Chorvachilik fermer xoʻjaliklarida sigirlar tugʻgandan keyingi yoʻldosh ushlanib qolishini bahor va qish oylarida koʻp uchrashiga sabab - fasllarda fermadagi 50-60 % sigirlarning tugʻishi boʻlsa, ikkinchidan baʼzi tadqiqotlar oʻrganilgan xoʻjaliklarda tugʻruqxonaning yoʻqligi, borlari ham veterinariya-sanitariya talablariga javob bermasligi, fermadagi barcha sigirlar bir xil oziqa ratsioni bilan boqilishi hamda bu fasllarda asosan quruq ozuqa bilan boqilishi, organizmning suvni koʻp talab qilinishi, oʻz navbatida organizm rezistentligining pasayishiga, tugʻgan sigirlarda yoʻldosh ushlanib qolishining koʻpayishiga olib kelgan. Yoz va kuz oylarida ham sigirlarda yoʻldosh ushlanib qolishi kam boʻlsa-da kuzatilib, bu fasllarda sigirlar oziqlanishining yaxshi boʻlishi, yayratish maydonlarida matsionning boʻlishi, organizmda moddalar almashinuvida fermentlar faolligining kuchayishi, ayvonlarda (bostirma tagi) saqlanishi hamda quyosh nurining hayvonlarda organizm bilan mikroorganizmlar oʻrtasidagi bogʻlanishning uzilishi ham muhim ahamiyat kasb etgan. «Yoʻldoshi ushlanib qolgan sigirlarning klinik koʻrsatkichlari» deb nomlangan toʻrtinchi qismida Chorvachilik fermer xoʻjaliklarida parvarishlanayotgan sigirlarning tugʻgandan

keyingi yoʻldosh ushlanib qolishida umumiy klinik belgilari va kechish xususiyatlarini oʻrganish maqsadida laboratoriya tekshirish usullaridan foydalanilgan holda akusher-ginekologik tekshirishlar oʻtkazilgan.

Yoʻldoshi ushlanib qolgan sigirlarda tana haroratining oʻrtacha 39,9-40,5 °C gacha koʻtarilishi, 1 daqiqadagi yurak urishi sonining oʻrtacha 77,2 dan 81,1 taga, nafas olish sonining oʻrtacha 26,4 dan 29,2 martaga oshishi, katta qorin devorining qisqarishining 2 daqiqada oʻrtacha 3,3 dan 2,8 martagacha kamayishi aniqlangan. Yoʻldoshi ushlanib qolgan sigirlarda ishtahaning kamayishi, umumiy holsizlanish, mahsuldorlikning kamayishi, vaqti vaqti bilan qindan qoʻlansa hidli suyuqlikning oqishi, 50% sigirlarda shilliq pardalar rangini oqarishi, teri qoplamasining hurpayishi, ayrim sigirlar bukchayib turish pozasini egallashi, siydik chiqarishning qiyinlashishi, tez-tez kuchanishlar, qindan qon aralash sargʻish suyuqlikning vaqti-vaqti bilan oqishi hamda vaginit belgilari kuzatilgan. «**Yoʻldoshi ushlanib qolgan sigirlarda gematologik tekshirish natijalari**» deb nomlangan qismida tadqiqotlardagi sigirlarda yoʻldosh ushlanib qolishida kasallikning boshlangʻich davrida barcha guruhlarda qondagi gemoglobin miqdori oʻrtacha 12,4±0,03 g foizni tashkil etgan boʻlsa, ushbu koʻrsatkich kasallikning kechishi davomida maʼlum darajada kamayishi, soʻngra barcha guruhdagi sigirlarda, yaʼni 6- kuniga kelib, oʻrtacha 13,2±0,05 g foizgacha koʻpaygan. Eritrotsitlar soni kasallikning boshida oʻrtacha 5,28±0,01 mln/mkl, kasallikning 6-kuniga kelib oʻrtacha 6,82±0,01 mln/mkl gacha koʻpayishi, umumiy oqsilni oʻrtacha 74,6±1,4 g/l dan 70,8±2,5 g/l ga kamayishi, hamda leykotsitlar miqdorining shunga mos ravishda 11,8±0,8 ming/mkl dan 13,8±0,6 ming/mkl ga oshishi aniqlandi. Shuningdek, leykoformulada tekshirishlar oxiriga kelib, bazofillarda oʻzgarish sezilmadi, eozinofillar 1,0-2,0% koʻpaygan boʻlsa, tayoqcha yadrolilarda oʻzgarish sezilmadi, segment yadrolar 2,0-3,0% kamaygan, limfotsitlar 2,0-3,0% oshganligi va monotsitlarda sezilarli oʻzgarish kuzatilmadi. Bundan xulosa kelib chiqadiki, sigirlarda yoʻldosh ushlanib qolishi qonining morfologik koʻrsatkichlariga sezilarli taʼsir qilmasligi kuzatilgan. «**Sigirlarda yoʻldosh ushlanib qolishining patognezi**» deb nomlangan qismida yoʻldosh ushlanib qolishini etiologik omillari sifatida bevosita va bilvosita taʼsir qiluvchi omillar mavjud. Bevosita taʼsir qiluvchi omillarga: 1) Bachadonni umuman qisqarmasligi (atoniyasi) va qisman qisqarishida (gipotoniyasi); 2) Bachadon shilliq qavatiga yoʻldoshni yopishib qolishi (bachadon shilliq qavatidagi kriptalarga xomilaning qon tomirli vorsinkali qavati); 3) yoʻldoshni tushishiga bachadonda qisilib qolishi va boshqa mexanik taʼsirlar natijasida boʻlishi. Yoʻldosh ushlanib qolishida asosiy sabablardan biri bu bachadon atoniyasi va gipotoniyasi. Bachadonni kuchli kengayib ketishi koʻp holatlarda bitta tugʻadigan hayvonda 2-3 xomilani boʻlishi, xomila va xomila pardasida koʻp suvni toʻplanishida, xomilani juda katta boʻlib ketishida (asosan bu sigirlarni birinchi tugʻishida) kuzatilgan. Sigirlarda yoʻldoshning ushlanib qolishi **toʻliq, notoʻliq va qisman** ushlanib qolishi kuzatilgan. Xarion bachadonning ikkala shoxlaridagi karunkullari bilan aloqani saqlab qolganda, allantois va amnionxorion bilan aloqani saqlashi yoʻldoshning toʻliq saqlanishi boʻladi; notoʻliq yoʻldosh ushlanib qolishi xorion bachadon shoxi korinkulalari bilan

aloqani saqlab qolgan holda qindan amnion, allantois va xarionni ma'lum qismi osilib turadi; yo'ldoshning qisman tutilishi – xorion faqat bachadonni bitta shoxidagi bir nechta korinkulalar bilan bog'langan bo'ladi, yo'ldosh to'liq bachadonda yoki bo'lmasa ma'lum qismi qindan osilib turiza kuzatilgan.

Dissertatsiyaning «**Sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishining oldini olish chora-tadbirlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobining «**Sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishini davolashda «Rootikan» va «Ixglyukovit-vet» preparatlarining samarasi**» deb nomlangan qismida Sigirlarda tug'gandan keyingi yo'ldosh ushlanib qolishini davolashda laboratoriyada tayyorlangan «Rootikan» preparatini va «Ixglyukovit-vet» preparatlarini samaradorligini o'rganish maqsadida eksperimental tajribalar har guruhda 5 boshdan 3 guruh sigirlarda olib borilgan (1-jadval).

1-jadval

Sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishini davolashda «Rootikan», «Ixglyukovit-vet» va «Yodopen» preparatlarini samarasi

Guruhlar	Sigirlar bosh soni vaqo'llanilgan dorilar nomi, miqdori	Davolash samaradorligi						
		Davo lash muddati, kun	Yo'ldoshi tushdi		Urug'lantirildi		Otalandi	
			soni	%	soni	%	soni	%
I tajriba	5 bosh «Rootikan» preparati 100 kg/t.o. 1 litr bachadon ichiga	3	5	100	5	100	4	80,0
II tajriba	5 bosh «Ixglyukovit-vet» preparati 50 ml bachadon ichiga	3	4	80,0	5	100	4	80,0
III nazorat	5 bosh «Yodopen» preparati 1 ta tabletka bachadon ichiga	3	3	60,0	3	60	3	60,0

Tajriba guruhidagi sigirlarga ham xuddi shunday davolash ishlari olib borildi, faqat yodopen preparati o'rniga bachadon shilliq qavati faoliyatini faollashtiruvchi patogenetik vosita sifatida «Rootikan» va «Ixglyukovit-vet» preparati bir kunda ikki marta 3 kun davomida yuborib davolangan. 1-tajriba guruhida bo'lgan sigirlarga «Rootikan» preparati qo'llanilgandan so'ng 2-kunida 3 bosh sigirni va 3-kunida 2 bosh sigirni yo'ldoshi o'zi tushgan bo'lsa, 2-tajriba guruhida bo'lgan sigirlarga Ixglyukovit-vet preparati qo'llanilgandan 2-kuni 2 bosh, 3-kuni 2 bosh sigirda yo'ldoshi tushgan bo'lsa 1 bosh sigir yo'ldoshi 4 chi kuni operativ (qo'l bilan) olib tashlangan. Nazoratda bo'lgan sigirlarda 3-kunida 3

bosh sigirni yoʻldoshi tushgan boʻlsa, 4-kuni 2 bosh sigirning yoʻldoshi opirativ (qoʻl bilan) olib tashlangan.

Tadqiqotlar jarayonida 1-tajriba guruhida boʻlgan sigirlarda «Rootikan» preparati qoʻllanilgan yoʻldoshi ushlanib qolgan sigirlarda preparat 4 marta qoʻllanilganda barcha sigirlarda yoʻldosh 3-kunida tushganligi 100% samara bergan boʻlsa, 2-tajriba guruhida boʻlgan sigirlarda «Ixglyukovit-vet» preparati 4 marta qoʻllanilganda 4 bosh sigirlarda yoʻldosh 3-kunida tushganligi va bir bosh sigirda 4-kuni yoʻldosh opirativ (qoʻl bilan) olindi 80,0% samara bergan boʻlsa, nazorat guruhida boʻlgan sigirlarda 60,0% samara berganligi tajribalarda aniqlangan.

